

Tarixiy Topishmoqlar

*Nuriddinova Hurriyat Baxtiyor qizi*¹

Annotatsiya: Topishmoqlar hajmi va shakliga ko‘ra maqollarga o‘xshaydi. Ba’zan mazmuniga ko‘ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Xalq topishmoqlari maqollar kabi yozma adabiyot vakillari ijodiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Mazkur maqolada tarixiy topishmoqlar, ularning turlari, olimlar tomonidan o’rganilishi tarixi o’rganilgan.

Kalit so’zlar: topishmoq, metafora, istiora, nasriy topishmoq, she’riy topishmoq.

Topishmoqlar qadimdan insoniyatning turmush tarzi, qadimiy e’tiqodlari natijasida yuzaga kelgan. Ular shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan davrlarda—«insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda» (F.I.Buslaev) paydo bo’la boshlagan. Qadimgi ajdodlarimiz tabiat hodisalari oldida ojiz qolganlar va ularni turli nomlar bilan atash jarayonida turli predmed nomlaridan foydalanib topishmoq tarzida aytishgan. Barcha xalqlar og‘zaki ijodining eng sevimli, qiziqarli va o‘ziga xos turi topishmoqlar hisoblanadi. Topishmoqlarni ba’zan «topmacha», «jumboq», «matal» deb atashgan. Mumtoz adabiyotda ular «chiston» ham deyiladi. Topishmoq hammabop ommaviy janrdir. Topishmoqlar nasriy va she’riy shaklda ixcham, sodda va ravon, qofiyali uslubda to‘qiladi. Topishmoqda yashirin ma’no ko‘pincha majoziy shaklda keltiriladi, aniqrog‘i, narsa nomi biron-bir qush, hayvon, buyum, o‘simplikka qiyoslangan holda beriladi. Shuning uchun hozirda olimlar topishmoqlarni o’rganish jarayonida turlarga bo’lib o’rganmoqdalar.

Topishmoqlarni o’rganar ekanmiz, ularni tarixiy va zamonaviy topishmoqlarga ajratib olamiz. Xalqning etnografik kelib chiqishi topishmoqlarga katta ta’sir ko’rsatgan, masalan, tarixiy topishmoqlar zamonaviy topishmoqlardan ham tuzilishi va nimani jumboq qilishi nuqtai nazaridan farq qiladi. Tarixiy topishmoqlar orasida ko‘pincha tabiat xodisalari va hayvonot dunyosi haqidagi topishmoqlar ko’p uchraydi. Shunday topishmoqlardan biri:

Uzun-uzun o’z ketdi,

Uzun bo’yli qiz ketdi

Toqqa borib taq etdi,

Sirg’alari yarq etdi. (Z.Husainova, 1981)

Ushbu topishmoqda “yashin” yashiringan bo’lib, uning yarqirashi va bo’yi uzun bo’yli qizga mahorat bilan o’xhatilgan.

Huddi shunday o’xhatishni hayvonlar haqidagi topishmoqlarda ham uchratishimiz mumkin.

Uzun-uzun qizgina

Uzun bo’yli qizgina. (Z.Husainova, 1981)

Topishmoqlarning paydo bo’lishi haqida aniq ma’lumotlar yo’q. Ammo Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarida “tabzug”, ya’ni “topishmoq” so’zi uchragani ma’lum.

O‘zbek xalq topishmoqlarining asosiy qismini metaforik topishmoqlar tashkil etadi. Qadimiyatning ulkan olimi Aristotel, topishmoqlarning metaforalardan tashkil topganligini alohida ta ’kidlaydi: «Amalda topishmoqning mohiyati haqiqatan mavjud bo‘lgan narsa to ‘g’risida so’zlash, Shu bilan

¹ Termiz davlat pedagogika instituti o’qituvchisi



birga, butunlay mumkin bo‘lмаган narsalami birlashtirishdir. Bunga (ко‘п qо‘llanadigan) со‘злар vositasida erishib bo‘lmasa, metaforalar orqali mumkin».

Chindan ham metafora narsa va hodisalar, predmetlaming u yoki bu belgisi o‘xshashligiga asoslangan poetik ko‘chim bo‘lib, an’naviy topishmoqlarning mohiyatini belgilaydi. Masalan, sabzi haqidagi «Yer tagida oltin qoziq» topishmog‘ini olaylik. Bunda sabzining rangi (sariqligi) oltinga, ko‘rinishi (shakli) qoziqqa o ‘xshashligi hisobga olingan. Demak, mazkur topishmoqning javobi sabzi bo‘lsa, uning ko‘chimi oltin qoziqdir. Mazkur topishmoqning «Yer tagida qator qoziq» variantida esa, sabzining faqat ko‘rinishi (shakli) nazarda tutilgan. «Qizil qiz yer ostida, sochlari yer ustida», «Sariboy akam ichkari, Soqollari tashqari» kabi variantlarda jonlantirish priyomi bilan birgalikda metaforik ko‘chimning turli jihatlari ham namoyon bo‘lgan². Shuningdek, shunday topishmoqlar borki, uning ichida bir necha predmed joylashgan bo‘ladi. Masalan: “Uzun terak, ichi kovak”(Z.Husainova,1966). Ushbu topishmoqning javobida qamish yashiringan bo‘lsada, miltiq va mo’ri javoblarini ham uchratishimiz mumkin. Shunday topishmoqlarga yana ushbu topishmoqni ham misol qilib ko’rsatadi Z.husainova,- “Soriboy akam ichkari, Soqollari tashqari”. Ushbu topishmoqda ham sabzi va makkajo’xori yashiringan. Qadimda topishmoqlarni ota-bobolarimiz guruh-guruh bo‘lib aytishgan va oson qiyinligiga qarab, qo’shimcha “qattiqmi”, “yumshoqmi”, “shirinmi”, “achchiqmi” kabi savollar berilgan.³

Topishmoqlarning yaratilish tarixi juda uzoq davrga borib taqaladi, shuning uchun bizgacha etib kelgan topishmoqlarda turli davrlarga oid material va ma’lumotlar mavjud. Ko‘rinadiki, jumboqlar javobini topish uchun ham xalqing tarixiy o’tmishidan, shu bilan birga qishloq xo’jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, xalqning turmushiga oid buyumlar, qurol-asboblar, tabiat hodisalari, o’simlik, hayvonlar, hashorotlar va hokazolar haqida ma’lum bir ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Demak, topishmoq topuvchi biror xalqning og’zaki ijodi namunalardan bo‘lmish topishmoqlari bilan qiziqsa, shu xalqning milliy madaniy turmush tarzi mentalitetidan boxabar bo‘ladi, yoinki, o’sha xalq mentalitetidan, milliy qadriyatlari-yu, dunyoqarashidan xabardor bo‘lsagina, topishmoqlariga osonlik bilan javob topa oladi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Husainova Z., “O’zbek topishmoqlari”, Toshkent G’ofur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1966, 105-bet
2. Husainova Z., “O’zbek xalq topishmoqlari”, Toshkent G’ofur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,, 1966, 3-bet
3. M.A.Ribnikova, “Zagadki”, Moskva,Leningrad,6-bet
4. T.S.Kuznetsova, Загадки эксетерского кодекса в фольклорно-литературном контексте средневековья, 2008,19-bet
5. www.ziyo.uz
6. <https://fayllar.org>

² Z.Xusainova, ”Ozbek xalq topishmoqlari”1966

³ Elyor Ashuraliyev, ”Xalq topishmoqlarining kognitiv strukturasi”diss.31-bet

